

O'QUVCHI YOSHLAR TARBIYASIDA MILLIY XALQ CHOLG'ULARINING O'RNI

Qurbanov Quldosh Yuldashevich

Qarshi DU Cholg'u ijrochiligi va vokal san'ati kafedrasi o'qituvchisi

Berdiyeva Dilobar Davronovna

Qarshi DU magistri

Annotatsiya: *Har qanday milliy cholg'u ohangi insonlar qalbida milliy g'urur va iftixorni uyg'otadi. Biz bilamizki o'zbek xaiqining milliy cholg'u asboblari cholg'u san'ati ijrochiligidagi katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada milliy cholg'ularning ijrochilikdagi o'rni haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: Kompazitor, qobiliyat, istedod, cholg'u, nozik, serqirra, kuy, amaliy.

Har tamonlama kamol topgan yuksak ma'naviyatli, zamonaviy talablarga javob beradigan yuqori malakali, raqobat bardosh cholg'uchilar mamlakatimizning san'at sohasiga munosib hissa qo'shishga qodir, yuksak madaniy va ma'rifiy –axloqiy sifatlarga ega bo'lgan yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston kelajagi sanalmish yosh avlod ongida milliy g'ururni shakllantirish, ularda Vatan, millat va xalqimizga bo'lgan hurmat hissini uyg'otishning yagona vositasi –ajdodlarimiz tomonidan bir necha yillar davomida yaratilib, asrlar osha sayqallangan ma'naviy merosimizdir.

XXI asrga kelib O'zbekistonda yoshlар hayotiga alohida e'tibor berilishi natijasida ularning bilim olish imkoniyatlari yanada kengaydi. O'zbekistonda har bir shaxs kasb tanlash va o'qish huquqiga ega bo'lib, o'zining qobiliyatidan, imkoniyatlaridan to'liq foydalana oladi, shuningdek bilim olish harakatida bo'lgan o'quvchi yoshlarni kelajakda o'z sevgan mutaxasisligi bo'yicha oliy ta'lim muassasalariga kirib o'qishlari uchun hukumatimiz tomonidan barcha shart-sharoitlar yaratilgan.

O'zbekistonni dunyoga tanitishda ayniqsa san'at va madaniyatning o'rni beqiyos. Barchamizga ayonki, kuy-qo'shiqqa muhabbat, musiqa san'atiga qiziqish xalqimizda bolalikdan boshlab, oila sharoitida shakllanadi. [1] Tarixiy manbalardan ham ma'lumki, musiqa san'ati juda qadim davrlardan buyon mavjud bo'lib, bizgacha juda uzoq taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan bo'lib, yosh avlodni tarbiyalashda muhim vositalardan biridir.

O'zbek musiqa madaniyati va ijrochilik san'atining rivojlanish tarixi qadim zamonlarga borib taqaladi. Buyuk sharq allomalari Muhammad al-Xorazmiy, Abu

Nosir Forobiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Ali Ibn Sino, Pahlavon Mahmud, Mirzo Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobir, Najmiddin Kavkabiy, Darvish Ali Changiy va boshqa qomusiy olimlarimiz o'zlarining risolalarida ijrochilik san'ati, musiqa ilmi va tarixi cholg'u sozlarining tuzilishi, ijroviy uslublari, san'atkorlik qonun-qoidalalariga oid qimmatli ma'lumotlarni bayon etib ketganlar.

Yosh avlodni milliy urf-odatlarimiz ruhida tarbiyalash hamda musiqa va badiiy ijomorqali ularning ma'naviy dunyosini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Musiqa san'atining ta'sir kuchi be'qiyosdir. Chunki, dunyoda musiqani sevmaydigan inson bo'lmaydi. Lekin har kim musiqani turlichal sevadi.

Musiqa san'ati nozik va serqirra hisoblanadi. Mustaqillik yillarida barkamol avlodni tarbiyalashning eng muhim, vositalaridan biri bo'lgan milliy musiqamiz, xalq an'analari va qo'shiqlariga katta e'tibor qaratila boshlandi. Biz yashayotgan tabarruk zamin bag'rida necha-necha buyuk insonlar hayot kechirgan. Ilmu-ma'rifat, adabiyot, san'atda, tengsiz, yuksak insoniy fazilatlari bilan ibrat bo'la oladigan nomlari abadiyatga muhrlangan buyuk yurtdoshlarimiz yashab ijomorqali etganlar. Ularning hayot va ijomorqali yo'llari biz uchun juda katta muktab.

Shular orasida o'zbek musiqa madaniyati ham qadimiy va rang-barang zamon an'analarini o'zida mujassam etgan holda rivoj topmoqda. Kasb-hunar ta'limida avvalo yoshlar betakror xalq musiqasi, jahon va qardosh xalqlar hamda jo'shqin estrada ijodiyoti kabi shaklan serjilo, maftunkor ohanglar og'ushidagi musiqa merosimiz namunalarini o'rganishmoqda.

Mustaqillik sharofati bilan milliy-ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan diqqat-e'tibor, uni taraqqiy ettirishga bo'lgan intilish ijobiy mazmunli bo'lishida, kayfiyatimizni ko'tarishda, ezgulik tomon yetaklashda katta o'rin tutadi. Tabiiyki, har bir davr vakillari ma'lum bir jihatlari bilan bir-birlaridan farq qiladilar. Shunday ekan avlodlarga ajdodlardan meros bo'lib qolgan, asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan o'ziga xos an'analar, umrboqiy qadriyatlarsiz yashab bo'lmaydi. Har bir o'quvch yoshlar milliy cholg'u asboblarimizni o'rganishi va birorta cholg'uda kuy ijro etishi kerakligini davlatimiz e'tiborida turibdi va bu musiqa o'qituvchilar oldiga qator vazifalar qo'yadi.

Prezidentimizning 2022 yil 2-fevral kuni imzolangan "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" PQ-112 son qarorning 1-ilovasiga keltirilgan davlat dasturiga muvofiq:

1. 2022/2023 o'quv yilidan boshlab ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste'dodlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi belgilansin:

a) umumiy o'rta ta'lim muassasalarida:

o‘quvchilarga mazkur qarorga [1-ilovadagi](#) ro‘yxatda keltirilgan milliy musiqa cholg‘ularidan kamida bittasida kuy ijro etish ko‘nikmalari o‘rgatiladi hamda bu haqda ularning ta’lim to‘g‘risidagi hujjatiga (shahodatnoma) tegishli qayd kiritiladi;

musiqa fani uchun haftasiga belgilangan bir o‘quv soati hamda unga qo‘sishma ravishda har hafta milliy musiqa cholg‘ularida kuy ijro etish amaliy to‘garaklari va fakultativ darslari o‘tkaziladi;

mazkur qarorga [1-ilovadagi](#) ro‘yxatda keltirilgan milliy cholg‘ulardan kamida bittasida, 2023/2024 o‘quv yilidan boshlab esa kamida uctasida kuy ijro etish mahoratiga ega bo‘lish musiqa fani o‘qituvchilari uchun majburiy hisoblanadi.[6]

Ushbu qarorlarni qabul qilinishi yurtimizdagи musiqa ta’lim muassasalarida cholg‘u ijrochiligi va xalq musiqa cholg‘ularida ijrochilik fanlaridan dars beruvchi professor- o‘qituvchilar oldiga qator vazifalarni qo‘yadi.

O‘quvchi talabalarga, eng avvalo, cholg‘u ijrochilik san’at tarixini o‘rganish, yoshlari orasida keng targ‘ib qilish, xalq musiqa cholg‘ularida ijrochilik san’ati sirlarini o‘rganib rivojlantirishga undaydi.

Yoshlarni tarbiyalashda milliy xalq cholg‘u asboblarimizda jonli ijro alohida o‘rin tutadi. Hech kimga sir emaski, jonli ijro bevosita ijrochi bilan tinglovchi o‘rtasida muloqatni bog‘lab turadi. Haqiqiy san’at tabiiyligi bilan ulug‘dir. Shu o‘rinda televide niye orqali berib borilayotgan “Ohangrabo”, “Xonish” va boshqa bir qancha musiqa ko‘rsatuvlari bunga misol bo‘la oladi.

Kuy - qo‘sishlar o‘zining har xil ohanglari, o‘zgarishi bilan yoshlarga o‘z ta’sirini ko‘rsatib kelmoqda. Milliy musiqa tinglasangiz, inson ruhiyatiga ijobiy ta’sir eta oladigan darajadagi ohanglar jilosi, sizni o‘ziga maftun etadi.

O‘quv muassasalarida musiqa o‘qituvchilari bugungi yoshlarga dars jarayonida milliy musiqamizni, shu bilan bir qatorda kompazitor va bastakorlarimiz tomonidan yaratilgan asarlar hamda jahon xalqlari va qardosh xalqlar musiqasi bilan tanishtirish, darsdan tashqari vaqtda, milliy, mumtoz, lirik qo‘sishlarimizdan ko‘proq foydalanish va ustoz bastakorlar haqida ma’lumotlar berib borsalar maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

O‘zbek kompazitor va bastakorlari ijodidagi asarlar o‘ziga xos milliy mumtoz, xalq ijodi va zamonaviy san’atni mujassamlantirgan. Xalqimizning ustoz san’atkorlari Yunus Rajabiy, Imomjon Ikromov, To‘xtasin Jalilov, Komiljon Jabborovlarni iste’dodli bastakor, mohir ijrochilar sifatida musiqa ixlosmandlari sifatida juda yaxshi taniydlilar.

Mamlakatimiz yoshlari iste’dodi va qobiliyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, o‘sib kelayotgan yosh avlodning ma’naviy dunyosini boyitish va madaniyat darajasini oshirish borasida yana bir muhim qadam bo‘lishi shubhasizdir. O‘zbekiston san’atini jahon miqyosiga olib chiqa boshlanganligi, madaniyatimiz, urf-odatlarimizning yuksalib borayotganligi hamma yoshlari uchun imkoniyat eshigini ochdi. Bizning urf-odatlarimizdek, madaniyatimizdek yuksalishni hech bir yurtda ko‘rmaganmiz. Chunki

har yili o'tkaziladigan milliy bayramlarimiz "Navro'z" hamda "Mustaqillik" tantanalari ulkan shodiyonaga aylanadi.

Bu bayramlarimizda milliylik sehri, urf-odatlarimizning o'chog'i, san'atimizning buyukligi madaniyatimizning boyligi namoyish etiladi. Shunday miqyosda o'tkaziladigan bayramlarimizda:

- millat tanlamaslik;
- viloyatlarimizning o'ziga xos yo'nalishlari
- jajji bolajonlarning san'atga bo'lgan mehri;
- qadriyatlarimizni milliyligi va ko'p qirraliyligi;
- mehmondo'st xalqsevar xalq ekanligimiz to'liq namoyon bo'ladi.

Milliy xalq cholg'u asboblarimiz O'zbekiston yoshlari ijodida muhim o'rin tutadi. Bizning milliy cholg'ularimizdan taralayotgan kuylarimiz shunchalik o'tkir va sehrli kuchi borki, biz o'zga yurtlarga borib bemalol yurtimizni milliy kuy va kompazitorlarimiz tomonidan yozilgan asarlarni namoyish eta olamiz va g'urur bilan ularning hayratiga sazovor bo'la olamiz.

Bu esa, o'zbek xalq cholg'u asboblarining cholg'u musiqa san'atigda o'z o'rniga ega ekanligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2009 yil 176 b.
2. Xudoyev G'. G'ijjak cholg'usi ijrochilik analalari. T.: "Muxarrir", 2014 yil 163 b.
3. Sh.Raximov. Cholg'ulashtirish va partitura o'qish. T.: Musiqa , 2009 yil 55 b.
4. R.Tursunov. Xalq kuylarini notalashtirish. T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2002 yil 87 b.
5. Примов Р. Т., Мурадов М. К. Профессиональное мастерство учителя музыки //Евразийский научный журнал. – 2017. – №. 4. – С. 198-199.
6. <https://lex.uz/uz/docs/-5849580>